



## TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASHNING AHAMIYATI

Rustamova Zarnigor Farxodovna

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15479848>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 19<sup>th</sup> May 2025

Published: 21<sup>st</sup> May 2025

### KEYWORDS

*tadbirkorlik, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash, investitsiyalar, bank kreditlari, xalqaro moliyaviy institutlar, moliyaviy resurslar, kichik biznes, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik, grantlar, subsidiya, moliyaviy barqarorlik, kapital, xususiy sektor, kredit risklari, biznes-reja, bozor iqtisodiyoti*

### ABSTRACT

*Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyotini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib tadqiqot davomida bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning ahamiyati, usullari hamda zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy resurslarning roli, bank kreditlari, davlat dasturlari va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari atroflicha o'rganilgan..*

### Kirish

Bugungi kun bozor iqtisodiyotining eng dolzarb mavzu va yo'nalishlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyotini takomillashtirish hisoblanadi. Yangi qo'shimcha ish o'rinlarini hosil qilish, yangi ko'rinishdagi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyatli hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish va ularni qo'llab-quvvatlash masalalari shu nuqtayi nazardan ham har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanadi.

Barqaror rivojlanishiga erishgan davlatlar tajribasidan shuni anglash mumkinki, qaysiki davlat ishbilarmonlik sohasini, xususan, biznesni rivojlantirishda faol investitsiya strategiyasiga amal qilgan bo'lsa, u iqtisodiy samaraga erishmasdan qolmagan. Xalqaro moliya fondi (IMF)ning hisobotiga ko'ra, "bugungi kunda dunyoda 90 foiz korxonalar kichik va o'rta biznesga tegishli bo'lib, ular butun dunyoning 63 foiz aholisini ish bilan ta'minlamoqda. Yevropa Ittifoqi miqyosida kichik va o'rta biznesning umumiy salmog'i 99,8 foizni tashkil etgani holda 85 foiz aholini ish bilan ta'minlab jami qo'shilgan qiymatning 58 foizini yaratishda ishtirok etmoqda" (<https://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf>).

### Tahlil va natijalar

Turli jamiyat va mamlakatda o'tgan asrlardan boshlab "Tadbirkorlik" va "tadbirkor" tushunchalari paydo bo'lib rivojlanib, takomillashib borgan. Agar uning rivojlanish jarayonini tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadigan bo'lsak, Qadimgi Rimda tijorat faoliyati tadbirkorlik deb atalgan. Bu faoliyatda odamlar o'ziga va jamiyat a'zolariga zarur bo'lgan mehnat bilan shug'ullanishgan hamda ijaraga berish orqali daromad olishgan.

O'rta asrlarda "tadbirkor" atamasi bir nechta ma'nolarga ega bo'lgan. Birinchi navbatda tashqi savdo bilan shug'ullanuvchilar; keyin esa turli ko'ngilochar tadbirlar, paradlar va ko'ngil ochuvchi kechalar tashkil qiluvchilar; shuningdek, yirik qurilish va ishlab chiqarish loyihalariga javobgar shaxslar tadbirkor sifatida qabul qilingan. XVII asrda davlat bilan hamkorlikda ma'lum bir hajmdagi tijorat bilan bog'liq bo'lgan ishni bajarishga majburiy ravishda jalb etilgan yoki mahsulotni oldindan kelishilib olingan qat'iy belgilab qo'yilgan narxda ishlab chiqarishga majbur bo'lgan shaxs "tadbirkor" sifatida qaralgan.

Shunday qilib, tadbirkor mulk egasi sifatida faoliyat yuritgan, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi o'z faoliyatidan oladigan foyda yoki zarar bilan aniqlanardi. Bu sohada bildirilgan fikrlar va mulohazalar bilan bir qatorda, tadbirkorlik tushunchasi, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rni haqida turli talqinlar mavjud. Ayniqsa, bu kategoriya birinchi marta ishlatilgan va talqin qilingan payt diqqatga sazovordir. "Tadbirkorlik" atamasi iqtisodiy adabiyotlarda ilk bora 1732-yilda Parijda tijorat sohasiga oid nashr qilingan umumiy lug'atda aks ettirilgan. Mazkur o'rinda tadbirkor atamasi bu qurilish jarayonlarida yoki ishlab chiqarishda ma'lum bir ishni bajarishga majburiyat olgan shaxs tushunilgan.

Tadbirkorlik atamasini mazmunan kelib chiqish tarixi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, dastlabki tadbirkorlar mulklarini xavf ostiga qo'ygan holda o'z faoliyatini tashkil etgan kishilar bo'lishgan. Shu bois, "tadbirkorlik" tushunchasi mulk tushunchasi bilan bog'lanib, tadbirkorning xo'jalikka qo'shgan moddiy hissasiga asoslangan. XVII asrda savdogarlarni tadbirkor deb atashgan va ularni moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchilardan farqlashgan. XVIII asrda esa sanoat taraqqiyoti sababli tadbirkor sifatida ish beruvchi shaxslar qaror qabul qilgan. Keyinchalik, Karl Marksning nazariyasiga tayanib, tadbirkor kapitalist sifatida qaror qabul qilingan, ammo tarixda har bir kapitalist tadbirkor bo'lmasligi ham o'zining o'rni bor.

Hozirgi kunda ilmiy manbalarda "tadbirkorlik" tushunchasi va uning mohiyati turli shakllarda tushuntiriladi. Ko'p hollarda, odatiy anglashuvga binoan, tizimli tarzda faoliyat olib borish va undan daromad va foyda olish uchun sub'ektning o'ziga xos faoliyati tadbirkorlik bo'lib, bu jarayon xavf ostida amalga oshiriladi.

Sohadagi asosiy me'yoriy hujjat hisoblangan "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunga binoan "fuqorolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqaroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi. Bu yerda tadbirkor to'la yoki qisman moddiy mablag'ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini tashkil qilish uchun yo'naltiradi" (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ-328-son)

Shunday qilib, yuqoridagi fikr va mulohazalarni hisobga olib, "tadbirkorlik" atamasiga quyidagicha ta'rif keltirishimiz mumkin: "Ish, xizmatlar, mahsulot ishlab chiqarish orqali faoliyatini tashkil qiluvchi maqsadi foyda olishga va iqtisodiy nafilikka qaratilgan hamda qonun hujjatlariga muvofiq ravishda o'z tashabbuslarini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs". Tadbirkorlar orqali insonlar faol mehnatga jalb qilinadi. Shuningdek, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirishga o'z hissasini qo'shadi. Shu sababli, tadbirkorlik faoliyatining turli klassifikatsiyalari mavjud. Uning turli yo'nalishlarga bo'linishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tadbirkorlikning sinflanishini chuqur o'rganish zarurdir. Tadbirkorlik sinflarini nazariy o'rganish ularning mohiyatini, shakllarini va jamiyat rivojlanishidagi o'rnini anglash uchun zarurdir. Bu jarayon iqtisodiy, huquqiy hamda ijtimoiy omillarni har tomonlama tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tadbirkorlikning individual, jamoaviy, ijtimoiy va innovatsion yo'nalishlari ilmiy-nazariy usullar bilan tadqiq etiladi. Ayniqsa, innovatsion tadbirkorlik global iqtisodiy sharoitda yangi imkoniyatlar yaratish va raqobat ustunligini qo'lga kiritishda katta rol o'ynaydi. Nazariy bilimlar asosida resurslarni oqilona boshqarish, risklarni kamaytirish va samarali strategiyalarni shakllantirish mumkin. Shuning uchun nazariy tahlil tadbirkorlik amaliyotining muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

**Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi**

Toifasi	Toifa mazmuni	Tadbirkorlik subyektlari soni 2023-yil	Tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil o'zgarishi
<b>AAA</b>	Juda yuqori kredit barqarorligi. Moliyaviy xavflar deyarli yo'q.	517	+ 405
<b>AA</b>	Yuqori barqarorlik. Moliyaviy xavf minimal darajada.	1569	+ 980
<b>A</b>	Yuqori barqarorlik, lekin bozor sharoitlariga nisbatan biroz sezuvchanlik mavjud.	2423	+ 1 469
<b>BBB</b>	O'rtacha darajada barqaror. Yaxshi holat, ammo iqtisodiy o'zgarishlarga sezgir.	12359	+ 6 592
<b>BB</b>	O'rtacha past barqarorlik. Moliyaviy vaziyat nisbatan xavfli, lekin halokatli emas.	28242	+ 15 558
<b>B</b>	Past barqarorlik. Qiyinchiliklar ehtimoli mavjud, ammo hamon faoliyatni davom ettirish imkoniyati bor.	49905	+ 15 558
<b>CCC</b>	Past barqarorlik. Moliyaviy holat xavfli va to'lovlarda qiyinchilik bo'lishi mumkin.	34528	+ 10 119
<b>CC</b>	Moliyaviy holat zaif. Bankrotlik yoki moliyaviy qiyinchiliklar ehtimoli yuqori.	144077	+ 38 595
<b>C</b>	Moliyaviy holat juda zaif Bankrotlik darajasida ehtimoli mavjud.	114919	+ 6 236
<b>D</b>	To'lov qobiliyati juda past darajada. Bankrot ehtimoli yuqori.	158923	- 111 174

Manba: <https://soliq.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

1-jadvalda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorlik reytinglari turkumlarga ajratilgan bo'lib, 2023-yil va 2024-yil uchun o'zgarishlar aks ettirilgan. Reytinglar AAA dan D gacha baholanadi, bu esa ularning barqarorlik darajasi va subyektlar sonidagi o'zgarishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

AAA toifasi eng yuqori kredit barqarorligini ifodalab bu toifaga mansub shaxslar soni 2024-yilning olti oylik yakuniga kelib o'tgan yilga nisbatan yana 405 taga oshgan. Vaholangki, 2023-yilda ushbu sub'ektlar 517 tani tashkil qilgan, yakuniy natijaga ko'ra sezilarli o'sish kuzatilgan. Juda yuqori kredit barqarorligi reytingiga ega tadbirkorlik subyektlari soni bir yil ichida 78% ga o'smoqda. Moliyaviy xavfsizlik darajasi yuqori bo'lgan ushbu subyektlar rivojlanayotgan iqtisodiyotning eng barqaror segmenti sonining oshishini ko'rsatadi va bu holat ularning ajralib turishiga sabab bo'ladi.

Jadvalda berilgan ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, barcha toifadagi tadbirkorlik subyektlarining soni o'tgan yilga nisbatan o'sgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, D (To'lov qobiliyati juda past, bankrotlik ehtimoli yuqori) toifadagi tadbirkorlik subyektlari 2023-yil 158,923 tani tashkil qilgan bo'lsa bu toifadagi tadbirkorlik subyektlari 2024-yil yarmiga kelib - 111 174 taga kamaygan. Bu degani D toifasidagi subyektlar soni 70% kamayganligini

anglatadi. Bu juda yaxshi natija, chunki to'lov qobiliyati juda past va bankrotlik holatida bo'lgan kompaniyalar soni sezilarli darajada qisqarmoqda. Bu moliyaviy barqarorlikning oshayotganini ko'rsatadi.

Birinchi rasmda O'zbekiston Respublikasida 2014-yildan boshlab 2023-yilgacha ishbilarmonlik sohasining davlat yalpi ichki mahsulotga (YAIM) qo'shgan hissasi to'g'risida informatsiya keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra tadbirkorlik tarmog'ining YAIMdagi ulushi 2015-2016-yillarda eng yuqori darajaga yetgan bo'lib, bu davrda ulush 56.7%-56.9%ni tashkil etgan. 2017-2020-yillarda esa bu ulush biroz kamayib, ammo 52.7%-54.9% oraliqda saqlanib, yalpi ichki mahsulotning yarmidan ortiq qismini tashkil etgan.



### 1-rasm. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi.

Manba: <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

YAIMga nisbatan 2021-2023 yillarda kichik biznesning ulushi nisbatan barqaror darajada saqlanib qolmoqda, ammo kichik pasayish tendensiyasini kuzatilmoqda. 2023-yil uchun keltirilgan ko'rsatkich 52%lik natijani ko'rsatmoqda. Ushbu raqamlar yillar kesimida biroz tushish tendensiyasida bo'lishi mumkin bu tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushini pasayganligini emas balki boshqa tarmoqlarning ham ulushi ortib borayotganligini anglatadi. Bu jadval kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiyotidagi muhim o'rnini aks ettiradi, chunki ular YAIMning katta qismini tashkil qiladi.

Xususiy mulkchilik ustuvor bo'lgan iqtisodiy sharoitda innovatsion texnologiyalarni ishlatish va ulardan foydalanish zamonaviy bozor iqtisodiyotining talablaridan biri. Tadbirkorlar ko'pincha innovatsion g'oyalar bilan chiqadilar, lekin ularni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar zarur.

- Ishbilarmonlik faoliyatida raqobatbardoshlikni ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda tadbirkorlar bozor o'zgarishlariga tez moslasha olishadi.

Yetarlicha moliyaviy resurslarga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari o'z bizneslarini tezroq kengaytirish va rivojlantirish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Bu o'z navbatida, iqtisodiy sohaga tegishli bo'lgan munosabatlarning ravnaq topishiga, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarga kirish muhim bo'lib, bu ularning g'oyalarini amalga oshirish, risklarni boshqarish va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar so'nggi yillarda keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlariga qaratilgan imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan

birga, soliq yuki kamaytirilishi va tadbirkorlikni yuritish jarayonidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, bu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Davlatning turli darajadagi grant va subsidiya dasturlarini taklif qilishi, bozor sharoitida o'zini oqlagan tadbirkorlarni rag'batlantirish uchun muhim omil bo'lib turibdi. Tadbirkorlarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatda innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonlari ham tezlashmoqda. Shu sababli, mazkur islohotlar natijasida tadbirkorlik faolligining ortishi kuzatilmoqda.

2-Jadval

**O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

Viloyatlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12552	12946	13742	15590	18404	21968	23721	26692	25928
Andijon viloyati	26048	26278	24644	27391	30740	36726	40474	44658	29717
Buxoro viloyati	13828	14809	15625	18115	23459	28233	31160	33686	31203
Jizzax viloyati	10076	10694	12008	14226	17190	20993	22714	25847	19923
Qashqadaryo viloyati	18557	18005	18471	20915	25259	30180	36168	41612	33064
Navoiy viloyati	8533	8771	9469	11175	17067	20133	22711	25179	21880
Namangan viloyati	17695	18746	19952	21269	25909	30882	33422	36914	27634
Samarqand viloyati	18553	19435	21061	25066	31354	38946	46667	54163	43477
Surxondaryo viloyati	12207	13003	13719	15172	19220	25367	28291	31427	24657
Sirdaryo viloyati	8300	8993	9392	10367	13169	15425	15920	17259	13432
Toshkent viloyati	24403	25019	26919	31030	38523	46173	50296	55472	45295
Farg'ona viloyati	23083	23310	25571	29128	35379	42241	46622	52746	42574
Xorazm viloyati	12899	13342	13674	14837	18614	21979	25160	28904	27089
Toshkent shahri	51024	55077	61284	69236	83846	95951	105603	117812	99151
Respublika bo'yicha jami	<b>2577</b>	<b>2684</b>	<b>2855</b>	<b>3235</b>	<b>3981</b>	<b>4751</b>	<b>5289</b>	<b>5923</b>	<b>4850</b>
	<b>58</b>	<b>28</b>	<b>31</b>	<b>17</b>	<b>33</b>	<b>97</b>	<b>29</b>	<b>71</b>	<b>24</b>

Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

2016–2024-yillarni o'z ichiga olgan salkam 10 yillik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining viloyatlari bo'yicha o'z ishini yuritayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish firmalari va tashkilotlar sonining o'sishi mazkur jadvalda aks ettirilgan. 2016-yildan 2024-yilgacha korxonalar va tashkilotlar soni respublika bo'yicha barqaror ravishda oshgan. Agar 2016-yilda bu ko'rsatkich 257 758 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda u 485 024 taga yetdi. Bu umumiy hisobda 227 266 ta yangi tashkilot va korxonalar qo'shilganini ko'rsatadi. Har yili o'rtacha 7-10% o'sish kuzatilgan, bu iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. Viloyatlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri eng ko'p faoliyat yurituvchi korxonalar soniga ega bo'lgan hududdir.

2016-yilda 51 024 ta korxonaga mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 117 812 tagacha o'sgan. 2024-yilga kelib bu raqam 99 151 taga yetgan, biroq pasayish kuzatilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Elmirzayev.S. (2019) Korporativ moliya. T.: Iqtisod-Moliya. 364 bet.
2. Abdullayev Y, (2008) Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. T.: Mehnat.
3. Zafar Qodirov (2021) Tijorat banklari moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash metodologiyasi. O'zbekiston Bank Moliya Akademiyasi.
4. Sharbat Abdullayeva (2019) Tijorat banklari foydasi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Toshkent Moliya Instituti.
5. Dilfuza Rahmonova (2022) Mikro va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Bank Moliya Akademiyasi.
6. Jasurbek Murodov (2021) O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun moliyaviy choralar. Toshkent Moliya Instituti.
7. Nodira Shukurova (2023) Yosh tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi yo'nalishlari. O'zbekiston Bank Moliya Akademiyasi.
8. Farhodbek Bekturayev (2019) Moliya va tadbirkorlik: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti.



INNOVATIVE  
ACADEMY